



## 7-SINF “ONA TILI” DARSLIGINING MAZMUNI

---

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali  
Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti  
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi  
Do‘stmatova Sevinch  
e-mail: [dusmatovasevinch@gmail.com](mailto:dusmatovasevinch@gmail.com)*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada 2022-yilda nashr qilingan amaldagi 7-sinf “Ona tili” darsligining qisqacha mazmuni tahlili haqida fikr yuritildi. Darslik bo‘yicha ayrim mavzularning mazmun hamda grammatik tomoni ko‘rib chiqildi va ular o‘zaro qiyoslandi.

**Kalit so‘zlar.** Yangi 7-sinf “Ona tili” darsligi, grammatik qoidalar, nutq so‘zlash ko‘nikmasi, tinglab tushunish, o‘qib tushunish kompetensiyasi, matn yaratish, tanqidiy va ijodiy fikrlash.

Õrta ta’lim tizimini zamon talablariga moslashtirish maqsadida 2022- yilda bir qancha darsliklarning yangi nashrlari e’lon qilindi. Bular ichida 7-sinf ona tili darsligining ham yangi nashri tadbiiq etildi. Bu darslik yuzasidan kōplab ijobiy va tanqidiy fikrlar bildirildi. Aslida darslik mazmuniga tōxtaladigan bōlsak avvalgi eski darsliklar ustuvor jihatlari bilan farqlanadi. Darslikni faqat grammatika qoidalar va ular bilan bōgliq mashqlar qamrab olmagan. Shu òrinda hammamizda savol tuēilishi mumkin. Yangi darslik afzalmi yoki eski darslik afzalmi yoki bōlmasa yangi maktab darsligi eski maktab darsligidan nimasi bilan farq qiladi? Avvalo, zamonamiz shiddat bilan òzgarayotgan bir paytda hamma sohalarda bōlgani kabi ta’lim sohasidagi bu òzgarishlarni ham tōēri qabul qilishimiz lozim.

Avvalgi ona tili darsliklari tilning tuzilishiga oid tizimli qoidalar va bu qoidalarning yod olinishini ta’minlovchi mashqlardan iborat edi. Yangi darsliklarda esa faqat grammatik qoidalar bilan cheklanib qolinmadi. Amaldagi darslikda quyidagi òzgarishlar bo’ldi:

1. Darsning (yoki darslar ketma-ketligidan iborat mavzuning) asosiy o‘zagini avvalgidek grammatik qoida emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub (badiiy, axborot, publitsistik, ilmiy-ommabop va boshqalar) hamda shakl (to‘liq matn, infografika, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) jihatdan turlicha ko‘rinishda berildi.



2. Mashqlar matn asosida tuzilgan va o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan:

- matnni o'qib tushunish ko'nikmalari;
- Matn yaratish ko'nikmalari (yozma yoki og'zaki);
- Tanqidiy va ijodiy fikrlash, shuningdek, tadqiqotchilik ko'nikmalari;
- til qoidalarini o'zlashtirish;
- tinglab tushunish ko'nikmalari.

3. O'rganiladigan til qoidalari tizimli tarzda (fonetika va leksikologiyadan morfologiya, sintaksis va uslubiyatgacha) emas, balki matnlar asosida beriladi. Aksariyat hollarda qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda beriladi.

Ona tili bo'yicha milliy darsliklarda ustun bo'lgan tilning tuzilishini (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika) izchil o'rganish tilshunoslik bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun zarurdir. Biroq tilshunos kadrlar tayyorlash umumta'lim maktabining vazifasi emas. Maktabdagi til ta'limining (ona tili va boshqa tillarning) vazifasi o'quvchini turli muloqot vaziyatlarida tildan to'g'ri va samarali foydalanishga o'rgatishdir. Buning uchun o'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- Hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan og'zaki, yozma va vizual matnlarning har xil turlarini tushunish;
- O'z fikrlarini boshqalarga yetkazish uchun matnlar (og'zaki, yozma, vizual) yaratish va dialogda (polilogda) qatnashish;
- Axborotni qidirish, topish, solishtirish va tahlil qilish.

Darslar kommunikativ mavzu asosida qurilgan bo'lib, uning asosida tegishli daraja uchun leksika va grammatikasi mos bo'lgan matn (dialog) tanlanadi. Ushbu matn til ko'nikmalarini (o'qilgan yoki eshitilgan matnni tushunish, og'zaki yoki yozma muloqot) rivojlantirish hamda leksika va grammatikani o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Darsliklar o'zgarishini soha pedagoglarining fikrlari bilan davom ettiramiz Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Jizzax shahar 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dilafruz Bobojonova shunday deydi: "Ancha yillardan buyon ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelaman. Bu yil yangilangan darsliklar haqiqatdan ham ancha o'zgargan. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, har bir narsani to'g'ri qabul qilishga moslashtirilgan topshiriqlar xuddi maktab bolasi tomonidan o'ylab chiqilgandek, ularning yoshiga juda mos. Ona tili darsliklarida ham qoidalardan ancha voz kechilgan. Buni men o'qituvchi sifatida to'g'ri deb o'ylayman. Sababi biz har yili



butun bir xalq ta'limidan faqat filolog yoki tilshunos chiqarmaymiz. Zotan, bunday iqtidorlarni kashf etuvchi ijod maktablari ochilgan. Biz o'quvchilarga hayotida kerak bo'ladigan narsalarni o'rgatishimiz kerak. Yangi darsliklar esa xuddi ko'nglimdagidek, o'quvchida aynan shu jihatlarni shakllantirishga xizmat qiladi".

Haqiqatdan ham yangi darsliklar faqat tilshunoslarni yetkazib bermaydi. Yangi darsliklar mazmuniga kōra ōrta ta'limni olgan har bir ōquvchi hayotda ōz ōrni egallab ketishi va ōrgangan bilimlarini hayoti davomida qōllab bilishi lozim. Shu sababli ham yangi darsliklarning asosiy mohiyati shularni qamrab oladi.

Umuman, bir muhim jihatni hisobga olish lozim. Milliy o'quv dasturi asosida nashr qilinayotgan barcha darsliklar singari, ona tili darsliklarining asosiy maqsadi – shunchaki fanga oid qoidalarini o'rgatish emas, balki fanga oid bilimlarini hayotda qo'llashga o'rgatishdir. Bundan maqsad esa fikrlaydigan, kreativ va tanqidiy fikrlash orqali muammolarga yechim topa oladigan, shu orqali o'ziga va Vataniga foyda keltiradigan shaxsni tarbiyalashdir.

Endi esa 7 – sinf darsligi bōyicha bōlimlar va ular yuzasidan berilgan mashqlar tahlili bilan tanishib chiqsak:

1 -mavzu: "Ijtimoiy tarmoqlar" bo'lib bu mavzuda berilgan mashq va topshiriqlar orqali olinma so'zlar, ijtimoiy tarmoqlar va ularga doir kōrsatmalar yuzasidan bilim va kōnikmalarga ega bōlamiz. Bundan tashqari diagramma bilan ishlash salohiyatiga ham ega bōlamiz. Diagramma shaklidagi axborotlarni matn korinishida yozish kabi mashqlar bor. Bu mavzu orqali ōquvchilar internet tarmoqlaridagi yozishmalarda to'g'ri yozish qoidalariga rioya qilishligini keyin muloqot madaniyati ham ōrganadi.

2-mavzu: "Zamonamiz qahramonlari" bōlib bu mavzuda grammatikaga doir mashqlar berilgan. Fe'llarning munosabat shakllari, zamon, shaxs-son qōshimchalari va esse yozish kabilarni ōrganadi. Bu mavzu orqali nafaqat grammatik bilimlarga balki hayotda yuz beradigan voqea hodisalarga doir bilimlarni ham shakllantiradi. Zamona qahramonlari tanishi bilan birga ularga ōxshagan qahramonlar bōlib yetishishga chorlaydi.

3- mavzu: "Turon yōlbarisi" bu mavzuda ōquvchilarning atrof- muhitga befarq bōlmasligi hayotimizning bir bōlagini tabiat tashkil etishi unda bōladigan ōzgarishlardan xabardor bōlishi kerakligi shu bilan bir qatorda shunga bo'g'liq matnlar orqali olmosh sōz turkumi, fe'llarning munosabat shakllari, matn yaratish kabi bilimlarga ega bōladi.

4-mavzu: "C vitamini" bu mavzu ham bevosita hayotimiz bilan bo'g'liq. ōquvchilar so'g'ligi bilan bo'g'liq dastlabki kōnikmalarni ham shakllantirib ketadi. Bu mavzuda



infografikaga doir bilimlar, sifatlar, miqdor va tartib sonlar yuzasidan ham bilimlarini mustahkamlab oladi.

Ushbu mavzular kabi qolgan mavzular ham shu tarzda berilgan va bu orqali darslik o'quvchilarning savodxonligi, to'g'ri fikrlashi va eng muhimi to'g'ri va ravon nutq so'zlashini oshirishga yordam beradi.

Nutq fikrdan hosil bo'ladi: fikr bo'lmasa, nutqni ham rivojlantirish imkonsiz. "Kesimning tagiga chizing", "aniqlovchining turini aniqlang" kabi mashqlar til strukturasi o'rgatish uchun balki qulaydir, lekin ular yordamida fikrlashni rivojlantirish imkonsiz. Yangi avlod darsliklaridagi matnlar va matnlar asosidagi savol va topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihalar o'quvchilarni fikrlash, mushohada yuritish, o'zlarini o'rab turgan voqelikka nisbatan faol munosabatda bo'lishga chorlaydi.

Xulosa shuki, yangi darsliklar faqat grammatik qoidalar va ularga doir bilimlar bilan cheklanib qolmasdan hayotda qo'llab biladigan zarur ko'nikmalarni ham shakllantirishga qaratilgan. Faqat o'quvchilarda grammatik bilimlarni egallashga emas, ularning nutqini o'stirishga, hayotga zarur bo'lgan, har bir sohaga oid dastlabki ko'nikmalarga ega bo'lishiga ham qaratilgan. O'quvchilarning zerikib qolmasligi uchun qiziqarli matnlar ham berib borilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
2. Ona tili [Matn] / N. Mahmudov [va boshq.]. – Toshkent: «Ma'naviyat», 217. – 160 b